

SHARQ MUMTOZ ADABIYOTIDA SHAYX SA'NON OBRAZINING GENEZISI VA TADRIJIY TAKOMILI

Karimova Muxlisaxon Olimjon qizi

Farg'ona davlat universiteti

Adabiyotshunoslik: o'zbek adabiyoti mutaxassisligi

1-bosqich talabasi

ANNOTATSIYA: Ushbu maqolada Shayx Sa'non obrazining Kunchiqar xalqlari adabiy tafakkuridan o'rin olib borish bosqichlari, xalq og'zaki ijodining ilk namunalaridan tortib Faririddin Attor asarlarigacha bo'lgan ruhiy, ma'naviy taraqqiyoti tahlil etiladi. Obrazning diniy asarlardagi ramziy va majoziy ma'nosi komil insonni tarbiyalash g'oyasiga xizmat qilishi yoritiladi.

KALIT SO'ZLAR: genesis, tadrij, arxitepik qahramon, agiografik xarakterdagi asar, dinamik obraz, Majnun .

Adabiyotshunoslikda genesis va tadrij tushunchalari g'oyaning ilk kurtaklari paydo bo'lishi va uning rivojlanib, shakllanib, takomillashib borishini ifodalaydi. Genesis so'zi grek tilida "yaratilish", "tug'ilish", "muqaddima" kabi ma'nolarga ega. Asar yoki obrazning ilk marta yaralish jarayoni, boshlang'ich shakli uning genesisidir. Tadrij so'zi o'zagi esa "daraja" ya'ni asta sekinlik bilan qadam-baqadam rivojlanish hisoblanadi. Vaqt oqimi davomida ma'lum omillar ta'sirida obraz yoki g'oyaning o'zgarib, bosqichma-bosqich murakkablashib borishi tadrijdir. Xalq og'zaki ijodiga oid yoki agiografik harakterga ega bo'lgan janrlarda bu ikki masala nisbatan chuqurroq o'rganiladi, sababi, bu asarlar din, tarix, va ma'naviyat bilan uzviy bog'liq bo'lgan qadriyatlarni mujassam etadi.

Mumtoz adabiyotda Shayx Sa'non obrazining shakllanishi qator diniy, madaniy, tarixiy asoslarga ega bo'lgani sababli uning genesisini tadqiq qilish ushbu obrazning adabiy-estetik va ilmiy ildizlarini kashf qilishga yordam beradi. Shayx Sa'non obrazining kelib chiqishi, dastlab, tasavvufga oid rivoyat va afsonalar, diniy tafakkur

va folklordagi arxetipik qahramonlarga borib taqaladi. Bu obraz yozma mumtoz adabiyotda Faririddin Attor tomonidan badiiy obraz sifatida gavalantirgan bo'lsa-da, uning asl mazmuniy markazi umumxalq adabiyotining tarixida chuqur ildiz otgan sanaladi. Og'zaki adabiyot bashariyat tafakkurining eng qadimgi badiiy ko'rinishi hisoblanib, u orqali agiografik tushunchalar, tarbiyaviy tamoyillar va orttirilgan tajribalar ramziy tarzda ifodalangan. Shayx Sa'non timsoli ham aynan shu ramziy tushunchalar zahirida paydo bo'lgan tasavvufiy qahramondir. Filologiya fanlari nomzodi F. Isomiddinov o'zining dissertatsiyasida shunday yozadi:

“Shayx Sa'non hayoti bilan bog'liq badiiy-ilmiy manbalarni o'rganish jarayonida ko'pgina qarama-qarshi ma'lumotlarga duch kelamiz. Ularning birida Shayx Sa'non afsonaviy siymo deyilgan bo'lsa, ikkinchisida, tarixiy shaxs sifatida bayon etilgan. Shuningdek, uning nomi ham turli manbalarda Shayx Sa'non, Shayx Sam'on, Ibni Saqqo, Abdulrazzoq shaklida berilgan”.¹

Attor bu obrazini dastlab ruhiyatidagi inqirozni, o'zligini unutib, hayotiy maslagidan voz kechib, amallarini inkor etgan gunohkor qiyofasiga olib keladi. Oxir-oqibatda esa majoziy ishq yo'ldan ilohiy haqiqatga ro'baro qiladi. Natijada, Shayx gunohlari ortidan hidoyat topadi va ruhiy kamolotga erishadi.

Shayx Sa'non obrazi statik emas dinamik obraz. U xalq og'zaki ijodidan boshlab sufiylik ta'limotigacha bo'lgan uzluksiz ruhiy va adabiy evolutsiyani o'zida namoyon etadi. Obraz zahiriga singdirilgan ma'naviy kamolot falsafasining tadrijiy takomili Sharq tafakkurining o'zgarib, asrlar osha yangilanib borishi bilan uzviy bog'liqdir.

Tasavvuf adabiyoti tarixida ham Shayx Sa'non obraziga maslak jihatidan yaqin turadigan ayrim qahramonlar mavjud. Xususan, Majnun (Qays) mashuqasiga bo'lgan muhabbati tufayli bor-u yo'g'idan kechgan, majoziy ishq yordamida ilohiy haqiqatga

¹ Isomiddinov .F. Shayx Sa'non haqidagi qissalarning qiyosiy tahlili.-Toshkent, 2001.

yetgan oshiq. Shayx Saʼnon kabi unga ham yor visoli ikki dunyosidan-da ustun turadi. Va shu ishq sababli Haqqa qovushadi. Shoir Atoyi yozganidek:

“Menga ul dunyoda jannat ne hojat

Eshiging tuprogʻi basdur kafanda”

Yaʼni suyuqlisining eshigi ostidagi tuproq, boqiy dunyo jannatidan ham azizroqdir unga. Sababi u behishtda aysh surish uchun emas, Haq jamolidan bahra olish uchungina topinadi.

Yoki Mashrabning:

“Urayinmu boshima sakkiz behisht-u doʻzaxin,

Boʻlmasa vasli menga ikki jahonni na qilay?

-deya xitob qilishi ham aynan shundaydir. Mahbubasining vasli oldida na jannatni, na doʻzaxni pisand qilmaydi. Yor visoli nasib etmasa ikki jahonni boshiga uradimi?! Bu baytlarni tasavvuf adabiyotini tushunmagan odam oʻqisa Mashrabni xudosizlikda, Islomni oyoqosti qilishda ayblashi tabiiy. Tasavvufda aynan shu tipdagi insonlar oʻzlarining gʻayrioddiy ruhiy holati bilan boshqalardan ajralib turishadi. Ular jamiyatdagi mavqeyi va odatiy maqomidan voz kechib, gunoh yoʻli orqali poklikka, ilohiy ishqqa yetishadilar.” Yoki yana bir misol sifatida Ibrohim Adhamni koʻrsatish mumkin. Ibrohim Adham Balx hukmdorining oʻgʻli, soʻfiylar orasida taqvosi va tarkidunyo qilgani bilan mashhur. U haqida Alisher Navoiy oʻzining “Nasoyim ul muhabbat” asarida “Avvalgʻi tabaqadindur. Kuniyati Abu Ishoq va oti va nasabi Ibrohim Adham binni Sulaymon, binni Mansur al-Balxiy. Mulukdin erkani xud mashhur. yigitlikda tavba tavfiqi topti. Bir kun ovqʻa boradur erdi. Hotife nido qildiki, ey Ibrohim, sani bu ish uchun yaratmaydurlar. Bu soʻzdin anga ogohligʻ yuzlandi va mulk tarkin qilib, bu toifa tariqin ixtiyor qildi va Makkaga bordi va anda Sufyon Savriy va Fuzayl Ayozi va Abu Yusuf Gʻasuliy suhbatigʻa yetishti,”² -deb

²Alisher Navoiy. Nasoyim ul muhabbat.-Ziyo net kutubxonasi, Toshkent, 2020.

yoʻzadi. Demak, Ibrohim Adham ham birgina ilohiy mujda sababli butun mol-mulki, taxti va shohlik maqomidan kechib tarki dunyo qiladi. Shu sababli uni yuqorida tilga olingan shaxslar tipiga kiritish mumkin. Fargʻona davlat universiteti falsafa kafedrasi katta oʻqituvchisi S.Evatov tasavvuf haqidagi maqolalarining birida shunday fikr beradi: "Aql narsalar tarkibidan toʻplangan natijalar vositasida bilish ufqlarini benihoyat darajada kengaytiradi. Ammo paygʻambarlar va maxsus malakaga ega boʻlgan avliyolar nabiylarning muqaddas ruhi, deb atalgan fazilatga ega boʻlib, uning vositasida "gʻaybdagi lavhlar, oxiratdagi hukmlar, osmonlar va zamindagi malakutlarning bir qismidan, hatto qisman rabboniy maʼrifatdan ham" ogoh boʻladilar. Kimki, bunday malakaga ega kishilar borligiga shubha bildirsa, uni sheʼr yoki musiqani eshitishdan bebahra odamga oʻxshatish mumkin boʻladi. Negaki, bunday kishilar sanʼatning ushbu qoliplarini idrok etishga qodir boʻlmagan boʻladilar. Bundaylar loʻqal shunday imkoniyat borligiga ishonishlari lozim."³

Xulosa qilish mumkinki, Shayx Saʼnon obrazi Sharq adabiyotidagi obrazlar dinamikasi, badiiy-falsafiy tafakkur taraqqiyoti, timsollar orqali ilohiy maqsadga yetish anʼanasining yorqin namunasi hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. A.Navoiy . Lison ut-tayr.-Toshkent:Yoshlar matbuoti, 2023.
2. A.Navoiy. Nasoyim ul muhabbat.-Ziyo net kutubxonasi, Toshkent, 2020.
- 3.Isomiddinov .F. Shayx Saʼnon haqidagi qissalarning qiyosiy tahlili.-Toshkent, 2001.
4. Evatov.S.Tasavvuf taʼlimotida insonning idrok etish xususiyatlari tahlili:Ilm-fan va innovatsiya ilmiy-amaliy konferensiyasi.-Toshkent,2024.
- 5.Sharafiddinov.O.Tasavvuf va adabiyot.Toshkent:Fan, 1996.
- 6.Attor Faririddin.Mantiq ut-tayr.Toshkent:Fan,1981.

³ Evatov.S.Tasavvuf taʼlimotida insonning idrok etish xususiyatlari tahlili:Ilm-fan va innovatsiya ilmiy-amaliy konferensiyasi.-Toshkent,2024.